

MATEMATIKA DARSLARIDA QIZIQARLI O'YINLARDAN FOYDALANISHNING SAMARALI USULLARI

Zaynutdinova Gulxayo Latipovna

Navoiy viloyati Zarafshon shahar XTB bo'limiga qarashli

11- MFFCHO`IDU maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya Bugungi kunda barcha sohalarda olib borilayotgan islohotlar ta'lim tizimi oldiga ham ulkan vazifalarni qo'ymoqda. Bu albatta pedagoglar zimmasiga katta ma'suliyat yuklaydi. Shu maqsadda ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq etilayotgan dasturlar natijasida farzandlarimizni bizdan ko'ra kuchli, bilimli don ova albatta, baxtli bo'lishiga zamin yaratilmoqda. Ta'limning barcha bo'g'inlarini shunday tashkil etish kerakki, o'quvchilarga chuqur va asosli bilim berish bilan birga keng qamrovli fikrlashga o'rgatish lozim. Ta'lim jarayonida o'quvchining mustaqil bilim olish jarayoni shakllanib borishi bugungi kunning talabidir.

Eng asosiysi, darsda samaradorlikka erishiladi, mavzuni idrok etish osonlashadi, o'quvchilar dars jarayonida zerikmaydi. Fikrlash qobiliyati ta'limiy o'yinlarda ham, mehnatda ham rivojlanadi. Fikr esa inson oldida eng oddiy bo'lsada biror muammoni yoki vazifa tugagandagina paydo bo'ladi. Bunda ko'p narsa insonning aql-zakovatiga, intellektual qobilyatiga ham bog'liq. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun matematika darslarida qiziqarli o'yinlarni o'tkazishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Hozirgi davrdagi eng dolzarb muammolardan biri ta'lim sifatini oshirib, samaradorlikka erishishdan iboratdir. Buning uchun turli innovatsion texnologiyalardan foydalanish talab etiladi. Bolani dars davomida bilimni to'la mavzu asosida egallashiga bir xil faoliyat bilan erishib bo'lmaydi. Bu bolaning yosh qobiliyatini charchatadi, zeriktiradi. O'yin faoliyati esa yosh bolalarni qiziqarli hayotiy ehtiyojlarini qamrab,

qiziqishlarini oshirib boradi. Har bir misol, masalani turli usullar, qiziqarli o'yinlar orqali ko'rsatib bajarish mumkin.

1-4-sinflarda misollar yechishda o'quvchilarni qiziqishlarini oshirish uchun ishlab chiqqan tajribalarim asosida sinalgan bir nechta qiziqarli o'yinlardan namunalar keltirmoqchiman.

Kirish

***“Matematika fanlar ichida shox,
uning sirlaridan bo'lingiz ogoh”.***

Qori Niyoziy.

Mamlakatimizning o'quvchi-yoshlarining barkamol shaxs sifatida etishishi, jismonan sog'lom bo'lib ulg'ayishini ta'minlash davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalashlaridan biriga aylanmoqda.

Bugungi kunda barcha sohalarda olib borilayotgan islohotlar ta'lim tizimi oldiga ham ulkan vazifalarni qo'ymoqda. Bu albatta pedagoglar zimmasiga katta ma'suliyat yuklaydi. Shu maqsadda ishlab chiqilib, amaliyotgatadbiq etilayotgan dasturlar natijasida farzandlarimizni bizdan ko'ra kuchli, bilimli don ova albatta, baxtli bo'lishiga zamin yaratilmoqda. Ta'limning barcha bo'g'inlarini shunday tashkil etish kerakki, o'quvchilarga chuqur va asosli bilim berish bilan birga keng qamrovli fikrlashga o'rgatish lozim. Ta'lim jarayonida o'quvchining mustaqil bilim olish jarayoni shakllanib borishi bugungi kunning talabidir.










O'quvchilarning har tomonlama yetuk inson bo'lib yetishishida biz – pedagoglarning o'rni beqiyos. Bugungi kun o'qituvchisi faqatgina darslikdan foydalanib qolmasdan, har bir dars uchun o'zi ham kichik kashfiyotlar yaratishi kerak. Shuning uchun bolalarga turli ko'rgazmalar va ta'limiy o'yinlar orqali ta'lim berish ularning nutqi rivojlanishiga va fikr doirasi kengayishiga imkon beradi. Eng asosiysi, darsda samaradorlikka erishiladi, mavzuni idrok etish osonlashadi, o'quvchilar dars jarayonida zerikmaydi. Fikrlash qobiliyati ta'limiy o'yinlarda ham, mehnatda ham rivojlanadi. Fikr esa inson oldida eng oddiy bo'lsada biror

muammoni yoki vazifa tugagandagina paydo bo'ladi. Bunda ko'p narsa insonning aql-zakovatiga, intellektual qobiliyatiga ham bog'liq. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun matematika darslarida qiziqarli o'yinlarni o'tkazishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Hozirgi davrdagi eng dolzarb muammolardan biri ta'lim sifatini oshirib, samaradorlikka erishishdan iboratdir. Buning uchun turli innovatsion texnologiyalardan foydalanish talab etiladi. Bolani dars davomida bilimni to'la mavzu asosida egallashiga bir xil faoliyat bilan erishib bo'lmaydi. Bu bolaning yosh qobiliyatini charchatadi, zeriktiradi. O'yin faoliyati esa yosh bolalarni qiziqarli hayotiy ehtiyojlarini qamrab, qiziqishlarini oshirib boradi. Har bir misol, masalani turli usullar, qiziqarli o'yinlar orqali ko'rsatib bajarish mumkin.

1-4-sinflarda misollar yechishda o'quvchilarni qiziqishlarini oshirish uchun ishlab chiqqan tajribalarim asosida sinalgan bir nechta qiziqarli o'yinlardan namunalar keltiraman

“Svetofor” (Yo'lchiroq) o'yini.

O'yin musobaqa tarzida o'tkaziladi. O'quvchilarni 3 guruhga bo'lib olamiz. Har bir guruh uchun alohida misollar beriladi. Misollar qizil, sariq va yashil rangli doirachalar ortiga yoziladi, ya'ni doiralar yo'lchiroq ranglari ketma-ketligida joylashtirilib, bunday doirachalar uchala qator uchun alohida tayyorlanadi.

$84-7=77$		$54-6=48$		$28-9=19$	
$64+8=72$		$78+4=82$		$87+5=92$	
$34-4=30$		$46-6=40$		$97-7=90$	

Har bir guruhdan birin-ketin o'quvchi chiqib avval qizil doirachalar orqasidagi misollarni, keyin sariq doirachalar orqasidagi misollarni, so'ngida yashil doiralar orqasidagi misollarni musobaqa tarzida yechib olishadi. Har bir to'g'ri ishlangan misol natijasida svetoforming shu rangi chirog'i yonadi. Noto'g'ri ishlangan misolni chirog'i yonmaydi. Har bir qatorning o'zining svetofoori hosil bo'ladi. Shu yerda o'quvchilar “Svetofor” qo'shig'ini kuylab oladilar:


*Ko'chamizda o'zing bor svetofofor, svetofofor,
Uchta chaqmoq ko'zing bor svetofofor, svetofofor,
Qizil, sariq, yam-yashil svetofofor, svetofofor,
Qizil ko'zing chaqnasa,
Yo'l bekilar teqma-taq.
Sariq ko'zing chaqnasa,
Biroz kutgin hamma vaqt.
Yashil ko'zing chaqnasa,
Yo'l ochiqdir MARXAMAT!*



Bu orqali darsni yo'l harakati qoidalariga ham bog'lab oladi.

Ushbu o'yin o'quvchilarni ziyraklik, chaqqonlik, tez fikrlash kabi qobiliyatlarini shakllantiradi. Yo'l harakati qoidalariga amal qilishga, ranglarni farqlashga o'rgatadi. Bu harakatli o'yinlar matematika fanini qiziqarli tarzda o'tkazishga yo'rdam bo'libgina qolmay, balki boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqlikni rivojlantiradi, yani tabiatshunoslik, yo'l harakati qoidalar, odobnoma, tasviriy san'at kabilarni.

Matematika darslarini yanada qiziqarli bo'lishi va ularni bo'shqa fanlar bilan bog'lab tashkil qilish maqsadida turli krossvord shaklidagi o'yinlardan ham foydalansa bo'ladi. Masalan: Buyuk zot, so'z mulking sultoni xazrat Alisher Navoiy hamda shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur tavallud topgan sanalarni yashirilgan krossvord tuziladi.



$$5:5=1$$

$$10-9=1$$

1	4	4	1
---	---	---	---

$$2 \cdot 2 = 4$$

1	4	8	3
---	---	---	---

$$16:4=4$$

$$20: 5=4$$

$$4 \cdot 2=8$$

$$85-84=1$$




$$3 \cdot 1=3$$

Magnit doskada 4 katakchalardan iborat 2ta bir xil shakllar yopishtiriladi. Katakchalar ortida raqamlar yashirilgan. Har bir guruhdan navbatma-navbat bittadan ishtirokchi chiqib bittadan misol yechadi. Misol to'g'ri yechilsa birinchi katakcha ortidagi raqam ochiladi. Shu tarzda ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi misollar yechiladi va javoblar topiladi.

Misollar yordamida bobokalonlarimizning tavallud ayyomlarini bilib oladilar. Bunday qiziqarli, ziyraklini oshiruvchi o'yinlar o'quvchilarni darsga qiziqtiribgina qolmay, uylarni ma'naviyatimizni, tariximizni, allomalarimiz haqidagi bilimlarini oshiradi va ma'lumotlarini boyitadi.

“Hayvonchalarni tutqunlikdan qutqarish” o'yini.

Navbatdagi tavsiya qilmoqchi bo'lgan qiziqarli o'yinimiz Bunda qafasga tushib qolgan hayvon bolalarini misol yechish orqali qutqarish bo'lib, har bir to'g'ri ishlangan misol bitta hayvonchani ozod qiladi. Qafasda uchta quyuncha, uchta tulkicha va uchta ayiqchalar tushib qolgan.



1-qator quyochalarni, 2-qator tulkichalarni va 3-qator ayiqchalarni ozod qilishlari shart. Barcha misollar to'g'ri ishlanganini hayvon bolalari qafasdan ozod bo'lib, o'rmonga ketganidan bilamiz. O'yin musobaqa tarzida o'tkaziladi

“Zukkolar” o'yini.

O'yinning maqsadi: Ko'paytirish va bo'lishga doir amallar yechish malakalarini mustahkamlash. O'yinning jihozi: Uchta bayroqcha.

O'yinning borishi: Qatorlararo o'tkaziladi. Qatorlar nomi doskaga yoziladi va o'quvchilar soni teng bolinadi. O'qituvchi har bir qatorning oxirgi partadagi o'quvchiga bayroqchani beradi. O'qituvchi son aytadi. M: 1-qatorga -6 soni, 2-

qatorga -4 soni, 3-qatorga -5 soni. Bayroqchalarni olgan o'quvchi $6 \times 2 = 12$ deb bayroqchani oldingi partadagi o'quvchiga uzatadi.

O'quvchilar natija qaysi son bilan tugasa shu son bilan boshlanadigan ifoda tuzishi kerak bo'ladi.




$6 \cdot 2 = 12$	$12 \cdot 2 = 24$	$24:3=8$
$4 \cdot 5 = 20$	$20 : 2 = 10$	$10:2=5$
$5 \cdot 14 = 70$	$70 : 10 = 7$	$7 \cdot 5 = 35$

Masalan: $20 \cdot 3$, $60 : 3$, $80 : 4$, $70 \cdot 3$, $80 \cdot 4$, $7 \cdot 3$, $8 : 4$, $20 \cdot 4$ kabi misollarni quydagicha yozib sinfdagi o'quvchilarni tartib bilan chiqarish mumkin.

O'yin jihozi: «-», «+» belgilari.

O'yinning borishi: O'qituvchi masalalarni o'qiydi, o'quvchilar esa masalani qaysi amal bilan yechish kerak bo'lsa, o'sha "ishorani" ko'rsatadilar.

Masala. Dilshodning 3 ta qora va 6 ta yashil qalami bor. Hammasi bo'lib nechta qalam borligini qaysi amaldan foydalanib topamiz? O'quvchilar «+» ni ko'rsatdilar. Masala og'zaki yechiladi. Masala.Nigorada 6 ta jo'ja bor edi, 4 tasini do'stiga berdi. Nigorada nechta jo'ja qoldi?



qo'shish, ayirish belgilarini qachon qo'yilishini so'rab ularni bilimini mustahkamlaydi.

MATEMATIKA

Dars mavzusi: Amallarni bajarish tartibi.(1-6-misollar)

Darshihg maqsadi:Ta'limiy maqsad:

- a) O'quvchilarning hisoblash malakalarini takomillashtirish, amallar tartibi haqidagi bilimlarni mustahkamlash. Matematikaga bo'lgan qiziqishlarini oshirish.
- b) Ularni hozirjavoblikka, mustaqil fikrlashga, o'z fikrini mustaqil bayon etishga o'rgatish.

Tarbiyaviy maqsad: a) Vatanni sevishtirish va qadrlashga o'rgatish.

- a) Milliy qadryatlarimizga bo'lgan muhabbatni o'stirish, mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi maqsad: O'quvchilarni intellektual bilim salohiyatini oshirish, geometrik jismlarga ta'rif berish malakasini, og'zaki nutqini rivojlantirish.

Dars jihozi: Darslik, videoproyektor, darsga oid rasmlar, ko'rgazmalar, tarqatmalar.

Dars uslubi: Interfaol, "Kichik guruhlarda ishlash" usuli asosida musobaqa tarzida o'tkaziladi. **Darsning borishi**

Tashkiliy suhbat- Qo'limda bor shunday kitob

Ichin ochsam g'ij-g'ij xisob

O'qisang gar qilar xitob

Misolim ko'p javobin top

Bilsangiz siz ayting shutob

Ne atalar ushbu kitob

Hamma : MA-TE-MA-TI-KA Keling darsimiz avvalida jumboqli ochqihga bir nazar solaylik.

1	3	5	7	9	2	4	6	8	10
m	t	m	t	k	a	e	a	i	a

O'qituvchi: Matematika qanday dars?

O'quvchilar: -Matematika qiziq dars,

Unga bor menda havas,

Qo'shaman ayriman,

Ko'paytirib bo'laman.

1- Ruxsat bering boshlamoqqa

Matematika sabog'in

Turli-tuman savol bilan

O'ylataylik barchani

2- Al-Xorazmiy bobomizga

Bugun ta'zim aylaymiz

Ko'p bebaho asarlarning

Ma'nosini tinglaymiz

3- Qiziq topishmoqlar bilan

Sinaymiz kuchimizni

Boshqotirma fokus bilan

Qoldiramiz lol sizni

4- Charchaganda xisob-kitob

O'yin-o'ynab olingiz dam

Dilbar qo'shiq kulgu sizga

Zavq beradi bir olam

Matematika fani bizga nimani o'rgatadi?

1. Sanoq sistemasini,

Yaxshi bilishim kerak,

Qo'shish ayirish jadvalin,

Puxta bilishim kerak.

2. Matematika fani sevmas,

Taxmin tusmolni,

Xisoblashni zo'r bilsang ,

Yechasan jo'n misolni.

3. Bizning quvnoq davraga,

Xush kelibsan marhabo,

Matematika biz bilan,

Xamrox bo'lsin doimo.

4. Bu fan bizning do'stimiz,

Mo'jizalar makoni,

Inoq bo'lib o'ssa kim,

Ortar ilmu imkoni.

5. Ikki karra ikkini,

Tezroq bilgil bolajon

Undan keyin yanada

G'ayrat qilgin bolajon

6. Yecholmayman demagil

Qiyin bo'lsa masala

Yalqovlarda bo'lmaydi

Ishlagani xafsala

7. Sonlar faqat o'shanda

Sirlarini ochadi,

Ular bilan do'stlashsang,

Yo'lingga nur sochadi,

8. Xullas, xisob kitobni

Tezroq bilgil bolajon.

Fursat o'tmay shu yo'lda,

Tezroq chopgin bolajan

Uzoq o'tkan zamonda raqamlar saltanatida chetlari hoshiyali, yuzlari oppoq katak daftarda o'n dona raqam alohida-alohida ajoyibu hayot kechirar ekan.

-raqamlar ichida to'ng'ich o'zidan keyingilarga yo'l boshchi, orqasida ukasi ish yoqmas va dangasa ikkini ergashtirib yurar ekan.

1
2

- bechora ikki nima ham qilsin uch bilan qo'lni-qo'lga berib darslarni yomon o'zlashtirgan bolalarning kundaligini to'ldirib, borligini bildirib turar ekan.

3

-esa ikki bilan o'rtoq hamma yerda inoq akasi 4 ning „Yaxshi o'qi“ degan so'zlaridan hafa ekan.

4

-bo'lsa 5 ning yonidan ketmas u kabi aolochi bo'lishga intilar ekan.

- 5** -barchaga yoqimtoy „A’lochilar“ daftarida erkatoyni kataklarning to’rida savlat to’kib turar ekan.
- 6** - beg’amligidan to’lishib o’ynab kulib quvanar „Ishlari 5“ 5 ning akasimanda der ekan maqtanib.
- 7** -Belbog’ini beliga bog’lab 7 hafta kunlariga bosh qosh bo’lib sanoqlardan adashib ketmasligi uchun nazorat qilib turar ekan.
- 8** -Har bir ishda tenglikni yoqtirgani bois shakli shamoili ham bir biriga barobar ikki halqaga o’xshar ekan.
- 9** -Boshi yerda oyog’i osmonda 6 ni ko’rib o’zining ko’rinishida ko’ngli to’q mag’rurlikda tenggi yo’q ekan.
- 0** - Nol! Nol chi deysizmi?
- Bir kuni nol ko’tokdek yumalab sakrab sakrab raqamlar ichida uzun bo’yli bir yashaydigan katakka kutilmagan mehmondek tushib qolibdi. Bir-bir bilan do’slashib ahil yashay boshlashibdi.

Sanoq sonlar shaharchasida ikki do’st 1 va 0 dan 10, 100,1000,10000 kabi ko’o xonalisonlar xosil bo’lib murod maqsadlariga yetibdi.

O’quvchi:Tazim sizga fanga asos slogan bobolar,

Ta’zim sizga nomi mangu qolgan bobolar,

Siz yaratgan mashhur fanni biz xam sevib qolganmiz

Ixlos bilan o’qib uni ancha bilib olganmiz.

Endi sinf o’quvchilar guruxlar bo’lib olsak

Maqsad bugun matematika darsida **“Kim g’olib”**musobaqa darsini tashkil qilamiz

1-gr

2-gr

3-gr

Farobiy

Al-Xorazmiy

Mirzo Ulug’bek



Guruxlar amal qilish kerak bo'lgan oltin qoidalar “**Intizom, faollik, vaqtga rioyaqilish**”

O'qituvchi- G'olib bo'lar bugun kim

Javob bering turmang jim.

1-gr. Biz bo'lamiz birinchi

Qani yetib ko'ringchi

Dars qilganmiz xamma vaqt

Bizga bo'lar baland taxt

2-gr Biz xam ortda qolmaymiz

So'nggi o'rin bo'lmaymiz

CHiqing maydonga kutmasin

Qimmatli vaqt o'tmasi

3-gr. Bizni chetga surmangiz

Bellashuvdan qo'rqmangiz

Kamtarga kamol derlar

Xaddingizdan oshmangiz

Mana sizlar guruhlar bo'lib bir biringiz bilan tanishib oldingizlar. Guruhlar musobaqasini boshlasak, buning uchun guruh sardorlari chiqib savollarni e'lon qiladi a'zolari javob beradi. Savollarga javob berish orqali o'tilgan mavzularni mustahkamlab olinadi.

O'tilgan mavzu:

1-gr.

- a) 1 sm da necha mm bor?
- b) bola soni 30 ta juft-juft bo'lib o'tirsa
bor ekan nechta parta
- g) 89 soni nechta o'nlik, nechta birlikdan iborat
- j) $x-14=30$ noma'lum son nechchi




2-gr.

- a) Salima do'kondan 14 ta,
Malika esa 6 ta non sotib oldi.
Ular jami nechta non oldi?
- b) 1 km necha m bo'ladi?
- g) 6 ni 7 marta orttirsak nechta xosil bo'ladi?
- j) Sanamay sakkiz dema, o'ylamay o'ttiz




3-gr.

- a) Tovuq uchun 28 kg don,
g'ozlar uchun esa undan 16 kg ortiq
don olib kelindi. G'ozlar uchun nechta kg don olib kelingan?
- b) Mening sakkizta oshnam xammasi xam mendan kam sen o'ngacha sanasang meni
aytmay qo'ymaysan.



1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10

- g) Vaqt o'lchovlarini ayting.
- j) $46+30 * 56+20$ ifodani taqqoslang
Guruhlar baholanadi




Dam olish daqiqasi :

(Ilon boshqotirmasini yechish).

Yangi mavzu:

1-misol. Ifodalarning o'xshashligini va farqini aniqlang

$$40-24:4=40-6=34 \quad (40-24):4=16:4$$



2. Har qaysi ifodaning qiymatini topishda amallarni bajarish tartibini bilib oling.

Qoidani yod oling



1. Agar ifodada qavs bo'lsa, ular ichidagi amal birinchi bajariladi

2. Ko'paytirish va bo'lish yozilish tartibi bilan bajariladi

3. Qo'shish va ayirish yozilish tartibi bilan bajariladi

$$75-(28+27)=75-55=20$$

$$30:(27-17)=30:10=3$$

$$59-18:2=59-9=50$$

2-misol $80-(38+22)=80-60=20$

$$60:(39-29)=60:10=6$$

$$(50-23):3=27:3=9$$

$$(40-38)*4=2*4=8$$

3-masala. Olib kelindi – ?

Sotildi – 37yashik,

Qoldi – 13yashik.

Dastlabki olib kelingan yashiklar soni?

$$x - 37 = 13 \quad 50 - 37 = 13$$

$$x = 37 + 13 \quad 13 = 13$$

$$x = 50$$

$$37 + 13 = 50 \quad \text{javob: } 50 \text{ yashik pomidor}$$

4-misol

Ko'paytuvchi	10	10	10	10	10	11	10	10
Ko'paytuvchi	2	3	5	6	7	7	8	9
Ko'paytma								

Mustahkamlash: Matematik maqollar aytish.

O'quvchi: Bugun esa biz mustaqil yurtning erkin farzandlarimiz. Yangi asr avlodlarimiz. Bobolarimiz, momolarimiz davomchilarimiz. Ular yaratgan yangiliklarni, kashfiyotlarni kelajakda biz davom ettiramiz. Vatanni sevishga, aolochi jamoatchi o'quvchi bo'lishga astoydil bel bog'laganmiz.

O'quvchi: Quchoq'ingga sog'sam qucholsam qani

Boshingga baxt bo'lib ucholsam qani

Har qanday xoru xasdan asraymiz seni

Vatan bizga ishon, ishongil Vatan

O'quvchi: Biz 2013 yilga qadam qo'ydik. Prezidentimiz bu yilni „Obod turmush yili“ deb atadi. Sog' salomat bo'lsak, Vatanimizni gullab yashnashi, turmushini obod bo'lishi uchun o'z xissamizni qo'shaveramiz.



Al-Xorazmiy, al-Buxoriy xazrat bizga

Ulug'beku, al-Farg'oniy savlat bizga

Manguberdi, Temur bobo davlat bizga

Ona xalqim, dono xalqim bizga ishon.

Vazifa:5-6-misollar

Qiziqarli o'yinlar o'qituvchini bolalarga yaqinlashtiradi, o'qituvchi bolalar nazarida tarbiyachigina emas, balki chinakam do'stiga ham aylanadi.

Bunday o'yinlar ijodiy shaxsni tarbiyalashga yordam beradi, chunki har bir o'yinning takrorlanishi topshiriqni bajarishga yangicha munosabatda bo'lishni talab qiladi. Uni hal qilish zarurati esa ijodiy izlanishlarni keltirib chiqaradi.

Yuqoridagi fikrlardan xulosa qilish mumkinki darslarni qiziqatli tashkil qilishda boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'z ustida ishlashi va tinmay izlanishi talab etiladi.

Pedagogning bunday mahorat bilan dars o'tishida o'quvchilarning mavzularda olgan bilimlarini chuqurlashtiriladi, fanga bo'lgan qiziqishlarini ro'yobga chiqarishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. N.U.Bikbayeva va boshqalar. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. -T, "O'qituvchi" 2007. 381- 404 betlar.

2 .Bikbaeva N.D. Zaynitdinova M.A. "Boshlang'ich ta'limda matematikadan davlat ta'lim standartini amaliyotga joriy etish". - T. "G'.G'ulom" 2008,47 b.

3. "Xalq ta'limi" ilmiy-metodik jurnali.

4. Boshlang'ich sinflar uchun matematikadan qiziqarli o'yinlar.

"Istiqlol"2005

5 1-4 –sinf darsliklari